



## TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI Q A R O R I

2023 - yil 17 - may

141-14-220-Q/23

Yangihayot tuman hokimligi

### **Toshkent shahar hokimining 2023-yil 5-maydagi 281-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi “Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-115-sonli qarori hamda Toshkent shahar hokimining 2023-yil 5-maydagi 281-14-0-Q/23-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida,

#### **QAROR QILAMAN:**

1. Toshkent shahar hokimining ““O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi “Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-115-sonli qarori ijrosi haqida” 2023-yil 5-maydagi 281-14-0-Q/23-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qaroriga muvofiq:

Xalqaro futbol assotsiatsiyalari federatsiyasi (FIFA)ning aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida futbolni yanada ommalashtirishga qaratilgan maxsus dasturlari asosida har yili mahalla yoshlari o‘rtasida, jumladan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Ommaviy futbol” (Grassroots) festival va musobaqalari, umumiy o‘rta ta’lim makkablari o‘quvchilari o‘rtasida “Makkablarda futbol”, oliv ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida “Talabalar ligasi” respublika musobaqalarini o‘tkazilishi belgilanganligi;

O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi tasarrufidagi sport-ta’lim muassasalari va inshootlarini rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlashning manzilli ro‘yxati;

O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi huzuridagi futbol makkablari ro‘yxati tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Toshkent shahar hokimining ushbu qarori bilan:

Toshkent shahar hokimi Toshkent shahar futbol assotsiatsiyalarining rahbarlari etib belgilanganligi;

Toshkent shahar va tuman futbol assotsiatsiyalari, shuningdek, futbol makkablari infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, ularni zamonaviy asbob-uskunalar va jihozlar bilan ta’milanishi;

Futbol maktablarini moliyalashtirish manbalari etib Toshkent shahar mahalliy budgetlari mablag‘lari belgilanganligi;

turli yosh toifasidagi hududiy terma jamoalar o‘quv-mashg‘ulot markazlarini Xalqaro futbol assotsiatsiyalari federatsiyasi (FIFA) talablariga muvofiq barpo etish uchun Toshkent shahar mahalliy budgetlarining qo‘srimcha mablag‘lari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari hamda qonunchilik hujjatlarida taqilanganmagan boshqa manbalar hisobidan mablag‘ ajratilishi inobatga olinsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari (M.Kamilov), Sport maktabi (R.Umarov):

tumanda bitta erkaklar, ayollar futboli va mini-futbol bo‘yicha futbol jamoalari tashkil etilishi va ularning musobaqalarda muntazam ishtiropi ta’minlansin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Kamilov zimmasiga yuklatilsin.

**Yangihayot tumani hokimi**



**X.Inogamov**